

UDK: 398.21:821.512.133.09

**“MALLA SAVDOGAR” DOSTONI VARIANTLARIDA EPIZOD PERSONAJLAR  
PORTRETI, SYUJET MUHITIDAGI QADRIYATLAR TASVIRI****Achilova Zuxra Qurbonovna,***Qarshi Davlat Universiteti Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi**kafedrası mustaqil tadqiqotchisi**ORCID: 0009-0004-3307-111X,**e-mail: [achilovaf@gmail.com](mailto:achilovaf@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Malla savdogar” dostoni variantlaridan biri misolida epik asarlarda portret va syujet muhitidagi qadriyatlar tasviri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalq dostonlarida personaj portretining badiiy-funksional xususiyatlari, xususan, tashqi qiyofa orqali ichki ruhiy holatni ochish usullari yoritiladi. Shuningdek, mehmon kutish epizodlari doirasida natyurmort unsurlarining etnomadaniy va poetik vazifasi ochib beriladi. Qoraxon elbegi, Oqbilak oyim va Avazxon obrazlari misolida mehmondo‘stlik, halollik, or-nomus va muomala madaniyati kabi milliy qadriyatlarining epik talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek xalq dostonchiligida portret va muhit tasvirining g‘oyaviy-badiiy yaxlitlikni ta‘minlashdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar.** Xalq dostoni, epik portret, psixologik portret, natyurmort, mehmondo‘stlik, Avazxon, Oqbilak oyim, Qoraxon elbegi, etnomadaniy qadriyatlar, syujet muhiti

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the depiction of values within portraiture and the narrative environment of epic works, using one variant of the epic “Malla Savdogar” as a case study. The study examines the artistic and functional characteristics of character portraits in folk epics, with particular attention to the methods of revealing inner psychological states through external appearance. It also explores the ethnocultural and poetic functions of still-life elements within episodes of hospitality. Through the images of Qoraxon Elbegi, Oqbilak Oyim, and Avazxon, the epic interpretation of national values such as hospitality, honesty, honor and dignity, and etiquette is analyzed. The findings of the research contribute to identifying the role of portrait and environmental description in ensuring ideological and artistic integrity in Uzbek folk epic tradition.

**Keywords.** Folk epic, epic portrait, psychological portrait, still life, hospitality, Avazxon, Oqbilak Oyim, Qoraxon Elbegi, ethnocultural values, narrative environment.

**Аннотация.** В данной статье на примере одного из вариантов дастана «Малла савдогар» проводится научный анализ отражения ценностей в системе портретных характеристик и сюжетной среды эпических произведений. В исследовании раскрываются художественно-функциональные особенности портрета персонажа в народных дастанах, в частности способы выявления внутреннего психологического состояния героя через описание его внешнего облика. Кроме того, в рамках эпизодов приёма гостей анализируется этнокультурная и поэтическая функция элементов натюрморта. На примере образов Қорахон элбеги, Оқбилак ойим и Авазхона рассматривается эпическое осмысление таких национальных ценностей, как гостеприимство, честность, честь и достоинство, а также культура общения. Результаты исследования способствуют определению роли портретного и средового изображения в обеспечении идейно-художественной целостности узбекского народного эпоса.

**Ключевые слова.** Народный дастан, эпический портрет, психологический портрет, натюрморт, гостеприимство, Авазхон, Оқбилак ойим, Қорахон элбеги, этнокультурные ценности, сюжетная среда.

**Kirish.** Badiiy so‘z san‘atida portret tushunchasi folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotning barcha turlarida muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, xalq dostonlarida portret personajning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosi, ijtimoiy

mavqei va axloqiy fazilatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Epik an'anada portret tasviri ko'pincha batafsil realizmdan ko'ra ramziy va tipik belgilar asosida yaratiladi, bu esa qahramon xarakterini qisqa, ammo ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. O'zbek xalq dostonchiligida mehmondo'stlik qadriyati syujet rivojining muhim unsurlaridan biri bo'lib, u ko'pincha mehmon kutish epizodlari orqali badiiylashtiriladi. Bunday epizodlarda portret va natyurmort unsurlari uyg'unlashib, milliy mentalitet, urf-odatlar va axloqiy me'yorlar poetik talqinda ifodalanadi. Shu jihatdan "Malla savdogar" dostoni variantlarida ushbu masalaning tahlili dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslikda portret va psixologik portret masalalariga oid nazariy qarashlar asos qilib olindi. Xususan, D.O'rayeva va D.Quvvatovalarning portret tushunchasi haqidagi izohli qarashlari, shuningdek, rangtasvir san'atida portret va natyurmort janriga oid Sh. Boboqulova tadqiqotlari metodologik tayanch vazifasini bajardi. Ishda qiyosiy-tipologik, struktural-tahliliy va badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi. "Malla savdogar" dostonining Jo'ra Eshmirza o'g'li varianti asosiy manba sifatida olinib, syujet tarkibidagi mehmondo'stlik epizodlari portret va muhit tasviri nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Badiiy so'z san'atining folklor, mumtoz va zamonaviy nasr turlarining barchasida portret tushunchasi mavjud. Portret termini haqida quyidagicha qarashlar mavjud.

**Portret** – (fr. portrait – tasvir so'zidan). Adabiy asarda kishining so'z yordamida tasvirlangan tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi, o'zini tutishi va h.k. Badiiy asardagi portretning tabiati va vazifalari rang-barang bo'ladi. Biroq portretning eng muhim xarakteri uning ko'proq psixologik portret bo'lishidadir. Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. [1.119-b.]

**Portret** janri–rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylari-dan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi. Inson qiyofasini ichki psixologik olami bilan bog'langan holda aniq, bir obrazda yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portretida insonning to'la gavdasi, yarmi yoki yuz qiyofasining faqat o'zi ham bo'lishi mumkin. Portret yaratish o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib ichki ruhiy, ma'naviy, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlarini aks ettirishi bilan san'at darajasidagi asar bo'lishi mumkin. [2.10-b.]

**Portret tushunchasining xalq dostonlarida ahamiyati.** Xalq dostonlarida **portret janri** qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosi, fe'l-atvori va ijtimoiy mavqeini ochib berish uchun muhim ahamiyatga ega. Portret tasviri qahramonni jonli va esda qolarli qilib, tinglovchi yoki o'quvchining unga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Xalq dostonlarida portret ko'pincha batafsil tasvir emas, balki tipik, ramziy va muhim

detallarga asoslangan holda beriladi. Bu esa qahramon xarakterini tez va ta'sirchan ochishga xizmat qiladi.

**Xalq dostonlarida portretning funksiyasi.** Xalq dostonlarida portret janri personajlarning qahramonlik, donishmandlik, makkorlik yoki savdogarlik kabi ijtimoiy-tipologik xususiyatlarini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qahramonning kiyimi, yurish-turishi, yuz ifodasi, nutqi va xatti-harakati orqali uning ichki dunyosi, maqsadi va ruhiy holati ochiladi. Dostonchilik an'anasida portret tasviri ko'pincha xalq estetik tafakkuriga mos, soddalashtirilgan, ammo chuqur ma'noli bo'ladi.

**Natyurmort janri**–fransuzcha so'z bo'lib, "*jonsiz tabiat*" degan ma'noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llanadigan buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi. U o'z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali uning xarakterli xususiyatlarini, voqea qaysi davrda ro'y berayot-ganligini ham ko'rsata oladi. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterli o'zlashtirish san'atning boshqa jihatlarini va turlarini o'rganishdagi dastlabki saboqlardir. Lekin bu natyurmort san'at sifatida faqatgina boshlang'ich vazifa bo'lib qoladi, degan ma'noni bermaydi, vaholanki natyurmortning san'at darajasida yaratilishi o'ziga xos murakkab va katta maktabni talab qiladi. Qushlar ishtirokida tushilgan natyurmort asarlari esa kishilarga estetik did bag'ishlab go'zallik sari chorlaydi. [2.10-11-b.]

Natyurmort janrining badiiy so'z san'atiga xos funksional imkoniyatlari, ayniqsa xalq dostonlaridagi mehmon kutish epizodlari tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday epizodlarda dasturxon, taomlar, idish-tovoqlar, gullar va ayrim hollarda jonli mavjudotlar (masalan, qushlar) tasviri jonsiz predmetlar orqali jonli ma'naviy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, natyurmort unsurlari doston matnida etnomadaniy kod vazifasini bajaradi. Ya'ni, tasvirlangan buyumlar majmuasi orqali muayyan xalqning qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari hamda tarixiy davr ruhi bilvosita ifodalanadi. Mehmon kutish jarayonida keltiriladigan noz-ne'matlar, ularning joylanishi va xilma-xilligi mezbonning saxovatini, ijtimoiy mavqeini va axloqiy fazilatlarini ochib beradi.

Shu jihatdan, natyurmort tasviri xalq dostonlarida faqat tasviriy unsur emas, balki mazmunni chuqurlashtiruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. U voqeaning estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, milliy mentalitet va an'anaviy turmush tarzini badiiy umumlashtirish imkonini beradi. Natijada mehmon kutish epizodlari orqali jamiyatning ma'naviy-estetik ideallari mukammal ifodalanadi.

**Natija va muhokama.** Doston syujetida Avazxonning Bog'dod tomon yo'l olar ekan Qoraxon elbegining ovuliga kelib tushishi voqealar rivojida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Qoraxon elbegi obrazi orqali turkiy xalqlarga xos mehmondo'stlik qadriyati

ideal mezbon timsolida ifodalanadi. Uning har qanday musofirni bir kecha mehmon qilishni burch deb bilishi, mehmon uchun alohida o'tov hozirlashi elbegining axloqiy barkamolligini ko'rsatadi.

Oqbilak oyim obrazi esa dostonida nafaqat go'zallik, balki ayollarga xos latofat, nozik ruhiyat va andishaning mujassam ifodasi sifatida talqin qilinadi. Baxshi tilidan berilgan poetik portret orqali uning tashqi qiyofasi bilan bir qatorda ichki kechinmalari ham ochib beriladi. O'tovning tozalanishi, mushk va atirlar sepilishi, ko'rpachalarning qatma-qat to'shalishi natyurmort unsurlari orqali mehmondo'stlik marosimining estetik va etnomadaniy jihatlarini yoritadi.

Avaxxon obrazi esa dostonning axloqiy-etik markazini tashkil etadi. Uning Oqbilak oyimning muhabbat izhorini rad etishi mezbonlik haqqi, halollik va pir nasihatiga sadoqat bilan izohlanadi. G'iro't bilan bog'liq epizod Avaxxonning ehtiyotkorligi va ichki intizomini ramziy tarzda ifodalaydi.

Dostonida Avaxxon Oydonani quvlab chiqib, uni izini yo'qotgach, bir oz tin olish uchun G'iro't otini erkin quyib, uxlab qoladi, uch oydan so'ng uyg'onib, G'iro't otini egarlab Bog'dod tomon yo'l Bog'dod tomon yo'l oladi.

Peshin chog' besh ovuli joyga kirib keldi, shu ovulning nomdori Qoraxon elbegi edi. U peshin nomozini o'qib, uyning soyasida to'shak tashlab, dasturxonda choy ichib tutgan chog'ida uzoqdan kelayotgan Avaxni ko'radi. Elbegi qaysi fasl bo'lmasin, uni ovulidan xoh otli, xoh piyo, qay holda odam bo'lsa, bir kecha mehmon qilib, mezbonlik vazifasini ado etar edi. Avaxxonni ko'rgan elbegi bir necha kun uni mehmon qilmoqni istaydi. Dostonida elbegi timsoli orqali turkiy xalqlarni azaldan mehmondo'stlik odati ifodalanagani ko'ramiz.

Dostonida mehmondo'stlik syujetida elbegining Oqbilak oyim degan qizi borligi, uning go'zalligi "Oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor, ko'kragida changal to'lgan bezi bor, qo'lida dapu doira, chanqovuzi bor, girdida qirq kanizi bor." Deb ta'riflanadi. Uydan ancha narida to'qson boshli o'tov tiktilgan bo'lib, Elbegi xotiniga qizining o'toviga borishni, "Bir kecha ming kecha bo'lmaydi. birov keladi, birov ketadi, bu kelayotgan mehmon mehmonxonaga lozim bo'lmaydi. shuning uchun qizing o'tovni bo'shatsin, mushku anbar ushatsin, tutilmagan joyxoblardan\* (ko'rpa-tushak) mehmon ostiga ushatsin." deya boybichasini zudlik bilan qizini o'toviga yuboradi. [3.334-335-b.]

Oqbilakoy kanizlari bilan o'tov bo'sag'asida turib, olisdan ko'ringan mehmonni kuzatadi. "Ana ko'rsa ko'rguday ekan, ko'ngil berguday ekan, agar g'aflatda uxlab yotsa, hech kimga bildirmasa, qo'yniga kirguday ekan." degan xayol blan onasini aytganini bajarmoqqa kirishadi. [3.337-b.]

Oqbilak oyim o'tov tevaragini supurtirib, xumdagi yaxday suvdan aylatirib septiradi. Tutilmagan joyxoblardan o'ttiz olti qavat ko'rpachani qatma-qatiga to'shatdi, ko'rpaning qatma-qatiga mushkiyu atir ushatdi, o'n sakkiz qavat lo'la-takiya aziz boshiga qo'ndirdi. Bir necha tun guli rayhonni har atroviga qo'ydi. [3.338-b.]

Qirq qiz hamrohligida Oqbilak oyim otasini uyiga ravona bo‘lib, Avazxonni G‘irotini jilovidan tutib, o‘tovga keltiradi. O‘tov o‘rtasiga ikromlik bilan o‘tqizilgan Avazxon Elbegi bilan salomu-duosi bilan bir-birini izzatini qilib suhbatini qilishadi. Xuftongacha yetgan mehmonnavozlikdan keyin elbegi uzoq yo‘l bosib kelgan Avazxonni hordiq olsishini istab, o‘tovdan chiqib ketadi. Avazxon elbegi ketgach “Beparvo yotishim bo‘lmaydi. G‘irotidan boshqa g‘amxo‘rim kim bor. Har bir bosgan izimdan ikki kam yetmish g‘animim turadi”, – deb G‘irotni olib kelib, o‘tovning bo‘sag‘asiga boyladi. Avazxon joyi xobga chiqib yotdi.” [3.339-b]

Otasi, onasi, kanizlari uyquga ketgach Oqbilak oyim baxshi tili bilan suylaganda “O‘n to‘rt yashar parizod. O‘tovga qarab jo‘nadi” .

Ko‘nglida er yigitga mehri tushgan Oqbilak oyim tundan cho‘chimasdan, yaratgani panohida, orzumand bo‘lib, “Bir xudodan himmat tilab,

Avazxonga ketgan ishq,” o‘tovga yetib bo‘sag‘adan oyog‘ini oshirib kirmoqchi bo‘lganda, bo‘ladi. Ammoki:

**“O‘qisa qoyil zehnidan,  
Odamdan oqil dol G‘irot,  
Tumshug‘ini oshirdi bo‘ynidan.**

**Ot fe‘lini yomon choqlab  
Asta o‘zini keyin tortdi.**

**Odamdan ko‘pdi aqili.**

**Burnidan o‘tgan kokili,**

**Avazxonning bosh hamroyi,**

Juda ham ziyrak bo‘z tarloni, –deya eshitgan Oqbilak oyim Avazxonni oldiga kirish uchun otga yaxshi so‘zlardan aytishni joiz biladi.

**Chopgan yering taqirchoq,**

**Ko‘rmadim senday to‘bichoq,**

**Nasib bo‘lsa dol G‘irot,**

**Ko‘nglingga og‘ir gap kelmasin,**

**O‘zim Chambilga kelinchak.**

.....

**Korim bo‘lib yo‘l bersang,**

**Men boray Avaz qoshiga**

G‘irot ko‘nliga yo‘l topgan Oqbilak oyimga biz oz yon bosh bo‘lib, andak yo‘l beradi. Qiz Avazxonga yaqin yo‘lab, necha gaplarini aytadi. Avazxon chala uyqusidan uyg‘onib, qizni o‘tov bo‘sag‘asiga otib yuboradi. [3.342-b.]

Qilichning sopidan tutib qizga siyosat qiladi. Qiz Avazxonga ishq izhorini aytadi. Avaz esa: “O‘zim Chambilning jallodi, Tez chiq o‘tovdan, qizgina,” bo‘lmasa unga qilichidan ziyon yetishini aytadi. “Chambildan kelgan shunqorim, Hazar qilmayman o‘limdan” deya gap aytagn Oqbilak oyimga, Avazxon:

**To‘rt yosharlik chog‘ida  
Enchi qip mindim G‘irotni  
Olti yoshimda kelib,  
Ko‘rganman Chambil ravotdi.  
Men otangga mehmon bo‘lib,  
Bu xil ishlar bizga uyatdi.  
O‘n bir yoshimning ustida  
Kezdim har bir mamlakatdi,  
O‘n ikki yoshimning ustidi,  
Pirim bergan nasihatdi:**

“Ey, Avazxon, olis mamalakatga yurish qilsang, g‘anim shaharga niyat qilsang, yomon-nochor ishga xiyonat ko‘zini solsang, bizni pirim, deb yod aylamagaysan. Agar halolik bilan ketsang, yongan olovning ichiga tushsang, ham bizni yodingga olsang, biz xudodan muroding tilab, o‘limdan qutqaramiz”, - degan edi. Ana, qizgina, mendan gap eshitsang, o‘zim safar ustidaman. Ey, ko‘zingdan, chiqqin o‘tovdan, uyqudan qolma, qaytishimda olib ketaman, - deb Avazxon qizni o‘tovdan chiqardi.

Kecha to‘gab, tong boshlanadi, bomdod nomozi choshga qadar Elbegi mehmon ziyofatini o‘rniga qo‘yadi. Avazxon mehmondorchilik taomidan so‘ng Bog‘dod tomon yo‘lga otlanadi. [3.339-340-341-342-343-b.]

Mazkur doston parchasida Avazxon obrazi bilan bog‘liq syujet chizig‘i orqali turkiy xalqlarga, xususan, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik qadriyati, axloqiy-etik me‘yorlar va muomala madaniyati yuksak badiiy darajada ifodalangan. Baxshi rivoyatida mehmonnavozlik nafaqat ijtimoiy munosabat shakli, balki muqaddas axloqiy burch sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, Qoraxon elbegi timsoli orqali bu qadriyatlar an‘anaviy xalq ongida mustahkam o‘rnashgan axloqiy me‘yor sifatida namoyon bo‘ladi. Doston syujetida Avazxonning Bog‘dod tomon yo‘l olar ekan, Qoraxon elbegining ovuliga kelib tushishi voqealar rivojida muhim burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. Elbegi obrazi ikkinchi darajali personaj bo‘lishiga qaramay, uning badiiy vazifasi salmoqlidir. Qoraxon elbegi har qanday musofirni bir kecha mehmon qilishni o‘ziga qat‘iy qoida qilib olgan, diniy e‘tiqod, urf-odat va insoniy burchni uyg‘un holda ado etuvchi ideal mezbon sifatida tasvirlanadi. Uning Avazxonni ko‘rishi bilanoq bir necha kun mehmon qilmoqchi bo‘lishi, mehmon uchun alohida o‘tov hozirlashi, xotiniga aniq ko‘rsatmalar berishi — bularning barchasi elbegining mas‘uliyatli, saxiy va odobli shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Qoraxon elbegi turkiy xalqlar epik an‘anasida uchraydigan “ideal mezbon” arxetipining yorqin namunasidir.

Elbegining qizi Oqbilak oyim obrazi esa dostonda mehmondo‘stlik va ayollarga xos latofat, nozik ruhiyat, ichki kechinmalar uyg‘unligini ifodalaydi. Baxshi tilidan berilgan tashbehlar – “Oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor” kabi poetik ta‘riflar orqali Oqbilak oyimning tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki olami, nafis didi va ruhiy sezgirligi ham

ochib beriladi. U mehmon uchun o'tovni tozalatishi, suv sepdirishi, mushk va atirlar bilan bezatishi, ko'rpalarni qatma-qat to'shatishi orqali nafaqat otasining topshirig'ini bajaradi, balki xalqona mehmondo'stlik marosimining barcha nozik jihatlarini puxta ado etadi. Bu holat Oqbilak oyimni faqat go'zal qiz emas, balki urf-odatlariga sodiq, muomala madaniyatini mukammal egallagan shaxs sifatida talqin etish imkonini beradi. Shu bilan birga, Oqbilak oyimning Avazxonga bo'lgan ichki muhabbati, uning ruhiyatida kechayotgan ziddiyatli holatlar baxshi mahorati bilan nihoyatda nafis ifodalangan. U muhabbat tuyg'usini ochiq-oshkora emas, balki andisha, hayo va qo'rquv bilan yashaydi. Qizning tun qorong'usida o'tovga kelishi – bu uning jasorati bilan bir qatorda, yosh qiz qalbidagi orzu, hayajon va xavotir uyg'unligini ham ko'rsatadi. Ayniqsa, G'irotdan bilan bog'liq epizod baxshining badiiy mahoratini namoyon etadi: otning ziyrakligi Avazxonning ehtiyotkorligi va sadoqat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Avazxonning Oqbilak oyimga munosabati esa dostonning axloqiy-etik g'oyasini yanada teranlashtiradi. U qizning muhabbat izhorini rad etar ekan, mezbonlik haqqi, ornomus va halollikni birinchi o'ringa qo'yadi. Avazxon o'zini "Chambilning jallodi" deb ta'riflashi orqali hayot yo'li sinovlar, janglar va mas'uliyatlarga to'la ekanini ta'kidlaydi. Eng muhimi, u pir nasihatini eslab, safar ustida yurgan odam uchun bunday ish "uyat" ekanini ochiq aytadi. Bu orqali Avazxon obrazi yuksak ma'naviyatli, o'zini tuta biladigan, ichki intizomi kuchli qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur parcha orqali baxshi mehmondo'stlikni shunchaki marosim emas, balki axloqiy tamoyil darajasiga ko'taradi. Qoraxon elbegi — saxiy va mas'uliyatli mezbon, Oqbilak oyim — latofat va andishaning mujassam timsoli, Avazxon esa halollik, sadoqat va yuksak muomala madaniyatining ifodachisi sifatida badiiy talqin etiladi. Garchi Elbegi va Oqbilak oyim ikkinchi darajali personajlar bo'lsa-da, ularning tashqi qiyofasi (portreti), ichki kechinmalari va ruhiy holati epik an'anaga xos ravishda puxta ochib berilgan bo'lib, dostonning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan ushbu fragment o'zbek xalq dostonchiligida mehmondo'stlik va axloqiy qadriyatlarning poetik ifodasi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Natija va muhokama.** Doston syujetida Avazxonning Bog'dod tomon yo'l olar ekan Qoraxon elbegining ovuliga kelib tushishi voqealar rivojida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Qoraxon elbegi obrazi orqali turkiy xalqlarga xos mehmondo'stlik qadriyati ideal mezbon timsolida ifodalanadi. Uning har qanday musofirni bir kecha mehmon qilishni burch deb bilishi, mehmon uchun alohida o'tov hozirlashi elbegining axloqiy barkamolligini ko'rsatadi. Oqbilak oyim obrazi esa dostonda nafaqat go'zallik, balki ayollarga xos latofat, nozik ruhiyat va andishaning mujassam ifodasi sifatida talqin qilinadi. Baxshi tilidan berilgan poetik portret orqali uning tashqi qiyofasi bilan bir qatorda ichki kechinmalari ham ochib beriladi. O'tovning tozalanishi, mushk va atirlar sepilishi, ko'rpachalarning qatma-qat to'shalishi natyurmort unsurlari orqali mehmondo'stlik marosimining estetik va etnomadaniy jihatlarini yoritadi. Avazxon obrazi esa dostonning

axloqiy-etik markazini tashkil etadi. Uning Oqbilak oyimning muhabbat izhorini rad etishi mezbonlik haqqi, halollik va pir nasihatiga sadoqat bilan izohlanadi. G'irotdan bog'liq epizod Avazxonning ehtiyotkorligi va ichki intizomini ramziy tarzda ifodalaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, "Malla savdogar" dostoni variantlarida portret va syujet muhitidagi tasvirlar orqali mehmondo'stlik, or-nomus, halollik va muomala madaniyati kabi milliy qadriyatlar yuksak badiiy darajada ifodalangan. Qoraxon elbegi, Oqbilak oyim va Avazxon obrazlari epik an'anaga xos tipik va ramziy portretlar orqali dostonning g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek xalq dostonlarida portret va natyurmort unsurlarini yanada chuqurroq o'rganish, shuningdek, epik matnlarda etnomadaniy kodlar masalasini tahlil qilishda metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.O'rayeva, D.Quvvatova "Jahon adabiyotining izohli lug'ati (O'quv qo'llanma) T.: "Navro'z" nashriyoti 2019-yil. 119-b.
2. Shodiyeva Sadoqat Boboqulova "Rangtasvir" (o'quv qo'llanma) Buxoro. "Kamolot" nashriyoti, 2022-yil 10-11-b.
3. Nurali dostoni. Jo'ra eshmirza o'g'li varianti. "Malla savdogar" dostoni. T. "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti 1989-yi. 334-335-337-338-339-340-341-342-343-b.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934